3 kundan so‘ng aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish boshlanadi


// 12 January 2026 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/3-kundan-so-ng-aholi-va-qishloq-xo-jaligini-ro-yxatga-olish-



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “O‘zkimyosanoat” AJ va Dehqonobod tumani hokimligi tomonidan Dehqonobod tumaniga biriktirilgan rahbar va xodimlar tashabbusi bilan qator amaliy tadbirlar tashkil etildi.



Xususan, Dehqonobod tumanidagi “Istiqlol” MFY hududida joylashgan 70-sonli umumta’lim maktabida maktab direktorlari, ularning o‘rinbosarlari hamda pedagog xodimlar ishtirokida amaliy o‘quv seminari va tushuntirish ishlari o‘tkazildi.



Tadbirda “O‘zkimyosanoat” AJ rahbar xodimlari, tuman statistika bo‘limi rahbari hamda mahalla idoralari mas’ullari qatnashib, aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish jarayonining mazmun-mohiyati, huquqiy asoslari va tashkiliy masalalari yuzasidan atroflicha ma’lumotlar berdi.



Seminar davomida ishtirokchilarga ro‘yxatga olish tadbirlarini samarali va sifatli tashkil etish, aholi xabardorligini oshirish, har bir xonadonga yetib borish hamda jarayonni belgilangan tartib va muddatlarda amalga oshirish muhimligi alohida ta’kidlandi.



Shuningdek, ishchi guruh “Nodira”, “Bo‘ston” va “Oydin yo‘l” mahallalariga tashrif buyurib, mahalla yettiligi vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Suhbatlar davomida ro‘yxatga olish jarayonida amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilinib, mavjud kamchiliklar, yuzaga kelayotgan muammolar va kelgusida takomillashtirish bo‘yicha takliflar tinglandi.



Mazkur uchrashuvlar joylarda olib borilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish, aholi bilan bevosita muloqot o‘rnatish hamda ro‘yxatga olish tadbirini yuqori saviyada o‘tkazishga xizmat qiladi.


"Oydinyo'l" mahalla fuqarolar yig'ini
ZIFFLER